



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



Respublika
Ta'lim Markazi

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

**2023–2024-O'QUV YILIDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI
BO'LGAN BOLALAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN
MAKTAB VA MAKTAB-INTERNATLARNING 9-SINF
O'QUVCHILARI UCHUN ONA TILI FANIDAN
YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH
BO'YICHA METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**



TOSHKENT – 2024

Imtihon materiallari Respublika ta'lim markazining Maxsus pedagogika bo'limining ilmiy-metodik kengashida 2024-yil 19-martdagi 2-son qarori bilan tasdiqlanib foydalanishga tavsiya etildi.

TUZUVCHILAR:

Z.Djurayeva – Respublika ta'lim markazi Maxsus pedagogika bo'limi boshlig'i.

M.Boqijonova – Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 106-sonli zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

TAQRIZCHILAR:

O.Tadjiyeva – Toshkent shahar M.Ulug'bek tumanidagi 101-sonli kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

G. Muhamedova – Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 106-sonli zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

MUHARRIRLAR:

N.M.Rasulov – Respublika ta'lim markazi Filologiya bo'limi boshlig'i.

G'. Boboqulov – Respublika ta'lim markazi metodisti.

ONA TILI IX SINF

2023–2024-o‘quv yilida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 9-sinflarida ona tili fanidan yakuniy imtihon tavsiya etilgan mavzular asosida yozma shaklida o‘tkaziladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar ta’lim muassasalari metodbirlashmalari tomonidan bosqichli nazorat imtihon materiallariga 15–20% gacha o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining bitiruvchilari yakuniy attestatsiyada ijodiy bayon yozadilar.

Ijodiy bayonda ko‘proq badiiy, ma’naviy-ma’rifiy masalalar, ijtimoiy va siyosiy hayot, fan va texnika yangiliklari, fanlararo bog‘liqlik to‘g‘risidagi mavzular yoritiladi.

O‘quvchilar bayonning quyidagi turlaridan foydalanib **ijodiy bayon** yozadilar:

- Matnga badiiy tasvir vositalarini kiritish orqali ijodiy bayon yozish;
- boshlab berilgan matnni o‘z fikr-mushohadalari asosida davom ettirish;
- matn shaxsini o‘zgartirib ijodiy bayon yozish.

Bayon matnlari 3 variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn bo‘lib, har bir matn bilan birga ijodiy bayon yozishning bir turi asosida topshiriq beriladi. Bir o‘quvchi 3 ta konvertdan bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertdagi matn mavzusi doskaga yozib qo‘yiladi. Ijodiy bayon uchun berilgan topshiriq ham doskaga yozib qo‘yiladi. O‘qituvchi tomonidan kamida (200–210 ta so‘zdan iborat bo‘lgan) ijodiy bayon matni og‘zaki va daktil nutqda ikki (lozim bo‘lsa uch) marta o‘qib eshittiriladi. O‘quvchilar eshitgan matn yuzasidan berilgan topshiriq asosida ijodiy bayon yozadilar. Ijodiy bayon hajmi kamida (180–200 ta so‘zdan iborat bo‘lgan) 2–2,5 bet bo‘lishi lozim.

Ijodiy bayon yozish uchun 180 daqiqa beriladi.

Ijodiy bayon matnlari o‘qituvchi tomonidan tanlanadi va ta’lim muassasasi metodbirlashmasida muhokama qilinib ma’qullanadi. Ma’qullangan materiallar ta’lim muassasasi rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

BAYON QUYIDAGI MEZONLAR ASOSIDA BAHOLANADI:

№	Mezonlar	Ball
1	Reja mavzuga muvofiq tuzilgan, matn mazmuni to'g'ri bayon qilingan bo'lsa; bayon mantiqli va muntazam bo'lsa; so'z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos bo'lib, mazmun va ifodada bir ikki xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda qo'pol bo'lmagan bitta imlo yoki ikkita ishoraviy xato bo'lsa; uslubiy xato bo'lmasa.	5
2	Matn reja asosida yoritilib, fikr bayonida muntazamlik qisman buzilgan bo'lsa; so'z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo'lsa; mazmun va ifodada 2-3 kamchilik bo'lib, savodxonlikda 3 tagacha imlo, 3 tagacha ishoraviy va ikkitagacha uslubiy xato mavjud bo'lsa.	4
3	Mavzu to'liq yoritilmagan, mavzudan qisman chetga chiqilgan bo'lsa; aniq voqeyilik izohida nuqsonlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; so'z boyligi va ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa; savodxonlikda 4 tagacha imlo, 4 tagacha ishorat, 3 tagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	3
4	Matn mazmuni ko'p buzilgan bo'lsa; ish rejaga mos bo'lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa; so'z boyligi sayoz bo'lib, mazmun va ifodada 5-6 tagacha xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda 7 tagacha imlo, 7 tagacha ishoraviy va 7 tagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	2
5	Matn mazmuni ko'p buzilgan bo'lsa; ish rejaga mos bo'lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa; so'z boyligi sayoz bo'lib, mazmun va ifoda hamda savodxonlikda 10 dan ortiq xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	1

KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR TA'LIM MUASSASALARI UCHUN IJODIY BAYON MAVZULARIDAN NAMUNALAR

1-VARIANT

Saxiylik

Bir kishining Said ismli o'g'li bor edi. Otasi har kuni maktabda ovqatlanishi uchun o'n ming so'm pul berar edi. Bir kuni u maktabga ketayotganida bir nochor insonni ko'rib qoldi:

- "O'g'lim, ikki kundan beri qornim och. Ovqat olib yegim kelyapti, lekin ustimdagi eski, yirtiq to'nimdan boshqa hech narsam yo'q. Puling bo'lsa bersang savobga qolar eding", - dedi.

Said nochor odamning gapiga chidab tura olmadi, uning ahvoliga rahmi kelib, otasi bergan o'n ming so'm pulni o'sha odamga berdi. U inson Saidning odobi va mehribonligiga rahmat deb, yig'lay-yig'lay duolar qilib ketdi. Said o'sha kuni o'zi och qolsa ham ochligini hech kimga bildirmay, sabr-u qanoat bilan o'tkazdi. Maktabda darslar tugagandan keyin uyiga borishi bilan qilgan ishini otasiga so'zlab berdi.

Otasi Saidning bu qilgan ishidan juda xursand bo'ldi va uni "saxiy o'g'lim" – deb duo qildi. Shu voqyadan keyin Saidga otasi ikki hissa ko'proq pul bera boshladi. Sababi Said olgan pulini to'g'ri sarflashiga ishonchi komil edi.

Saxiy Said otasi bergan yigirma ming so'm pulning bir qismini maktabda ovqatlanishi ushun, bir qismini nochor insonlarga ehson qilish uchun sarfladi, qolgan qismini esa yig'a boshladi. Oradan yillar o'tib Said boyib ketdi.

Qissadan hissa shuki, aziz bolajonlar, hech qachon qizg'anchiq bo'lmang, doimo o'zingizdan zaif odamlarga yordam bering, hech kimdan yordamingizni ayamang, shunda siz ham saodatga erishasiz, boy-badavlat bo'lasiz.

(209 ta so'z)

2-VARIANT

Milliy o‘yinlar bolani jamiyatga qo‘shadi

Olimlarning aytishicha, milliy o‘yinlarning ko‘pi oxirgi besh-o‘n yillardan beri deyarli o‘ynalmay qo‘yilgan va ular kompyuter, telefonlarga ko‘chgan. Haqiqatan ham, bolani jamiyatga qo‘shilishida milliy o‘yinlarning o‘rni beqiyosdir.

O‘yinlar bolani ham aqlan, ham jismonan rivojlantiradi. Uni jamiyatga aralashtiradi, insonlar orasidagi o‘rnini topishiga sababchi bo‘ladi. Chunki o‘yinda bola o‘yinboshi bo‘ladi, ishtirokchi bo‘ladi va o‘z-o‘zidan o‘yin bolaga jamiyat, dunyo haqida bilim beradi. Eng qizig‘i, bu bilimlar bolaga majburan singdirilmaydi, o‘yin ishtirokchisi uni zavq bilan o‘rganadi, ishtiyoq bilan o‘ynaydi.

Kompyuter o‘yinlari tasavvurni, aqlni charxlashi mumkin, lekin ular deyarli harakatsiz o‘yinlardir. U yerda bola faqat kuzatish bilan band bo‘ladi.

Hech narsa yangidan paydo bo‘lgan emas. Bugun yaratilayotgan kompyuter o‘yinlarining asosi ham o‘yin qayerdan kelayotgan bo‘lsa, o‘sha xalqning adabiyoti, san‘atiga tayanadi. Biz faqat iste‘molchi bo‘lishimiz kerak emas. Bizning ham qadim tarixga ega san‘atimiz, jahon xalqlari o‘rgansa arziydigan milliy o‘yinlarimiz bor. Shularni kompyuter o‘yinlariga aylantirish kerak.

Xalqimiz tarixida juda ko‘p bolalar o‘ynaydigan milliy o‘yinlar bo‘lgan va ular avloddan avlodga o‘tib kelgan. “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Berkinmachoq”, “Oshiq”, “Boychechak”, “Xola-xola”, “Qorxat”, “Ko‘pkari” kabi umumxalq o‘yinlarining ro‘yxatini tugatib bo‘lmaydi.

Nomlari sanab o‘tilgan milliy o‘yinlar har birimizga tanish. Yoshligimizda barchamiz bu o‘yinlarni maroq bilan o‘ynaganmiz. Sizning sevimli o‘yiningiz bulardan qay biri bo‘lganini eslay olasizmi?

(196 ta so‘z)

3-VARIANT

Internet va yoshlar

XXI asr – axborot texnologiyalari taraqqiyoti asri. Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog‘i, ya’ni internetsiz tasavvur qilish qiyin.

Ma’lumki, internet – axborot va hujjatlarning o‘zaro almashinishini ta’minlaydigan kompyuter tarmoqlarini birlashtirgan xalqaro tizimdir.

Internetning yoshlar uchun foydali jihatlari juda ko‘p. Internet tarmog‘i bizga turli ma’lumotlarga tez ega bo‘lishdan tortib chet tillarini o‘rganish, ishlash, manzillarni osongina topib borish, savdo qilish, loyihalar ishlab chiqish kabi cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Bir so‘z bilan aytganda, internet insoniyatning aqlli yordamchisidir.

Internetning cheksiz imkoniyatlarini hech kim rad etmaydi, ammo u ba’zi noqulayliklar va salbiy holatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bularning hammasi undan qanday foydalana olishimizga bog‘liqdir. Ayni damda yoshlar ko‘p vaqtini internetda o‘tkazayotgani global muammoga aylanib ulgurgan.

Internetga qaramlikning bir ko‘rinishi real olamni unutishdir. Undan ham og‘irroq fojea esa insoniylik burchi va vazifalarini tamoman esdan chiqarishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, zimmasidagi vazifalarini bajarishi, atrofdagilarga foyda keltirishi zarur.

Internetda ko‘p vaqtini o‘tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o‘z qobig‘iga o‘ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni jamiyat uchun befarq, ma’suliyatsiz inson bo‘lib qolishiga sababchi bo‘ladi.

Internetning yana bir salbiy jihati-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egoizm illatining kuchayishiga sabab bo‘lishidir.

Pichoq oshpazning qo‘lida tengsiz quroldir. Oshpaz u orqali eng mazali taomlarni tayyorlaydi. Ana shu qurol niyati buzuvchi kimsalarning qo‘lida bo‘lsa, u qotillikka qo‘l urishi mumkin. Xulosa chiqarish o‘zingizdan. Biz yoshlarning internetdan foydalanish jarayonida oshpaz kabi mohir bo‘lishlarini xohlar edik.

(227 ta so‘z)